XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 2 - may VI-62-60-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumanidagi mavjud nomsiz ziyoratgoh va qabristonlarga nom berish to‘g‘risida.

Qiziriq tumanidagi mavjud aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari O‘zbekiston Respublikasi geografik obektlari nomlari Davlat reyestiri bilan solishtirma xatlov o‘tkazish natijasida ayrim qabristonlar va ziyoratgohlar reyestr bazasiga kiritilmaganligi aniqlangan. Shunga asosan Qiziriq tumani hokimligi Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 11-iyundagi 01-015/060-son yig‘ilish bayoni, tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to‘g‘risida viloyat komissiyasiga 2022-yil 24-iyundagi taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 23-fevraldagi 15-00365-sonli ekspert xulosasini ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tumanda nomsiz geografik ob’ektlarga nom berish to‘g‘risida tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Yuldoshyevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 23-fevraldagi 15-00365-sonli ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi ziyoratgoh va qabristonlar nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Qo‘ziyev, tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Z.Nodirov)ga o‘n kun muddatda tuman hududidagi nom berilgan ziyoratgoh va qabristonlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

5. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ziyoratgoh va qabristonlar nomlanganligi bo ‘yicha aholi orasida tushuntirish ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

6. Tuman “Taraqqiyot” gazetasi (Ch.Alimov)ga mazkur qarorni gazetaga e’lon qilish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Z.Raxmatov, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Majidova) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **K.B.Muhammadiyev**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023 yil 2 maydagi
VI-62-60-8-113-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qiziriq tumanidagi ziyoratgoh va qabristonlarning nomlanishi bo‘yicha

RO‘YXAT

№	Geografik ob’ektning turi	Geografik ob’ektning bog‘lanishi	Geografik ob’ektning nomi
1	Qabriston	Gulobod MFY	Xomkon
2	Qabriston	Buyuk kelajak MFY	Abdusamadxon Hojiakbar
3	Qabriston	Bog‘bonlar yurti MFY	Mangulik
4	Qabriston	Bog’iston MFY	Qo‘ng‘irot
5	Qabriston	Zarbdor MFY	Zarbdor
6	Qabriston	Xalqobod MFY	Sayid Hamroxon
7	Qabriston	Qishloqazon MFY	Beg‘uborlik
8	Qabriston	Oqjar MFY	Oqjar
9	Qabriston	Tinchlik MFY	Tinchlik
10	Qabriston	Yangiobod MFY	Birodarlik
11	Qabriston	Istiqlol MFY	Hazrati Muhammad A’zam
12	Qabriston	Buyuk kelajak MFY	Karmaki